

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

"RO'YXATGA OLINDI"

№ VM-343-53408-3.20

"1" iyul 2003 y.

"TASDIQLANDI"

O'zbekiston Respublikasi

Oliy va o'rta maxsus

ta'lim vazirligi

"8" iyul 2003 y.

**SOLIQ ISHINI YuRITISH
fanidan
DASTUR**

**Oliy ta'limning 340000 - "Biznes va boshqaruv"
ta'lim sohasidagi 5340800 - "Soliqlar va
soliqqa tortish" bakalavriat yo'nalishi uchun**

Toshkent - 2003

Tuzuvchilar: dots. Almardonov M.,
k.o'q. Meyliev O.

Taqrizchilar: dots. Xolbekov A.,
dots. Xudoyqulov S.

Respublikamiz mustaqillikka erishganidan so'ng boshqa sohalarda bo'lgani kabi soliq tizimida ham tub islohotlar amalga oshirila boshlandi va jamiyatimiz ijtimoiy – iqtisodiy holatiga mos bo'lgan soliq tizimini yaratish borasidagi islohotlar davom ettirilmogda. "Soliq ishini yuritish" fanining o'quv rejasiga kiritilishdan asosiy maqsad talabalarning soliq ishini yuritishga oid bilimini, saviyasini oshirish, hujjatlar bilan ishlash bo'yicha ko'nikmalar hosil qilish hamda bu bilim va ko'nikmalarni soliq amaliyotida qo'llay bilishlari bilan tanishtirishdan iborat.

Основной целью учебной дисциплины "Налоговое делопроизводство" является ознакомления студентами таких моментов, как изучение действующих норматив по-правовых документов, по вопросам налогообложения, сущности налоговой системы, роли, место и значение налоговой системы в управлении экономикой страны, методического обеспечения регулирования налоговых взаимоотношений между государством и налогоплательщиками, нормативных актов и методических указаний по конкретным налогам.

Subject of "tax" is thought as specialized subjects of "taxes and taxation" based on High education's state standards. In process of teaching this subject, character of taxes and nontax payments of juridical and corporal persons, calculation of taxes and nontax payments and orders of paying to budget are lightened.

Especially calculation of taxes and nontax payments of juridical and corporal persons, presentation of calculations and orders of payments are learned practically and deeply. This example program is approved and confirmed by Ministry of High and Secondary Education of Republic of Uzbekistan.

Dastur Toshkent Moliya instituti Ilmiy Kengashida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan (2003 yil 25 aprel 9-sonli bayonnoma).

Dasturlar to'plami O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi oliy o'quv yurtlararo ilmiy-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengash majlisida muhokama qilingan hamda nashrga tavsiya etilgan (2003 yil 1 iyul 37-sonli majlis bayoni).

1. SO'Z BOSHI

"Soliqlar ishini yuritish" fanining maqsad va vazifalari, boshqa fanlar bilan bog'liqligi

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng boshqa sohalarda bo'lgani kabi soliq tizimida ham tub islohotlar amalga oshirila boshlandi va jamiyatimiz ijtimoiy – iqtisodiy holatiga mos bo'lgan soliq tizimini yaratish borasidagi islohotlar davom ettirilmoqda.

"Soliq ishini yuritish" fanining o'quv rejasiga kiritilishdan asosiy maqsad talabalarning soliq ishini yuritishiga oid bilimini, saviyasini oshirish, hujjatlar bilan ishlash bo'yicha ko'nikmalar hosil qilish, bu boradagi ularning majburiyatlarini o'rganish va amaliyotda qo'llay olishni o'rgatishdir.

Bu fanning vazifasi talabalarda soliq idoralarida ish yuritish to'g'risidagi bilimini shakllantirish hamda bu bilim va ko'nikmalarni soliq amaliyotida qo'llay olish bilan tanishtirishdan iborat. "Soliq ishini yuritish" fani o'rganish ob'ektining yaqinligiga ko'ra "Amaliy ish yuritish", "Soliq qonunchiligi asoslari", "Soliq menejmenti" kabi fanlar bilan o'zaro bog'liq.

O'quv fani bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarga talablar

Talabalar "Soliq ishini yuritish" fani bo'yicha kasb faoliyati sohasida erishilgan asosiy yutuqlar muammolar va ularning rivojlanishi istiqbollari haqida tasavvur ham qilish "Soliq ishini yuritish" fanidan "Soliqlar va soliqqa tortish" bakalavriat yo'nalishi bo'yicha maxsus bilimlarni, kasb faoliyati ko'nikmalari va o'quvlarini shakllantirish, seminar va amaliy mashg'ulotlarda o'tkaziladigan munozaralarda talabalarning faol ishtiroki ta'minlanishi talab etiladi.

Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha bajariladigan

Talabalar o'quv dasturida keltirilgan amaliy (seminar) mashg'ulotlarining mavzularidan tegishli tartibda tanlab olib, bu mavzular bo'yicha referatlar va mustaqil ishlar tayyorlashlari hamda amaliy mashg'ulotni olib boruvchi o'qituvchi nazoratida tayyorlangan ishlar yuzasidan og'zaki suhbatdan o'tishlari lozim. Ushbu talablar amaliy mashg'ulotlar mavzularidagi yulduzcha bilan ajratib ko'rsatilgan kichik mavzular bo'yicha talabalarning to'liq o'zlashtirishlarini belgilab beradi.

Auditoriya mashg'ulotlari turlarining soatlar hajmi bo'yicha tavsiyalar

Oliy kasbiy ta'limning davlat standartlarida mazkur kursga 90, shu jumladan, 30 ma'ruza, 30 amaliy, 30-mustaqil ta'lim soatlari ajratilgan. "Soliq ishini yuritish" fani bo'yicha olingan bilimlar talabalarni keyinchalik amaliy faoliyatda uchraydigan

muammolarni hamda zamonaviy iqtisodiyotga doir adabiyotlarni o'rganib, kasbiy malakalarini oshirishlarida qo'l keladi.

Talabalar bilimni baholash uchun o'tkaziladigan nazorat tadbirlari miqdori

"Soliq ishini yuritish" fanidan talabalarning bilimni baholash ikki marta oraliq, ikki marta joriy, hamda yakuniy nazorat shakllarida o'tkaziladi. Yakuniy nazorat yozma ish shaklida tashkil etiladi.

Kompyuter, informatsion va boshqa zamonaviy o'qitish texnologiyalarini qo'llash

"Soliq ishini yuritish" fani o'qitilishida kompyuterlardan, audio va video jihozlar, dioproektor va kodoskoplardan shuningdek, dars davomida turli jadvallar hamda slaydlardan foydalanish talab etiladi.

Ushbu o'quv fani bo'yicha tahsil olayotgan talabalar soliqqa oid bilimlarni soliq ishini yuritishdagi yo'nalishlarni bilishlari kerak. Ular respublikamiz soliq idoralarida mavjud me'yoriy hujjatlar va ular ustida ishlashdan xabardor bo'lishlari lozim. Shuningdek, ulardan kompyuterda hujjatlar ustida ishlash talab qilinadi.

O'quv jarayoni mobaynida soliq to'lovlarini hisoblash va byudjetga o'tkazish, informatsion axborotlarni qayta ishlash va unifikatsiyalashtirish uchun kompyuter texnikasidan foydalanish, dioproektor, diagramma, sxemalar, qo'llanmalar hamda o'quv qurollaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

2. FAN DASTURI

"Soliq ishini yuritish" fani bo'yicha ma'ruza mashg'ulotlari mavzulari

"Soliq ishini yuritish" fanining predmeti va vazifalari

"Soliq ishini yuritish" fanining predmeti. Fanning soliq idoralarida hujjatlar bilan ishlashni tashkil etishdagi ahamiyati. Fanning o'rganish uslublari, vazifalari va boshqa fanlar bilan o'zaro aloqasi.

Soliq ishini yuritishning asoslari, uning tarkibi

Soliq ishini yuritishni tashkil etish. Soliq ishini yuritishda soliq to'g'risidagi qonun elementlarining huquqiy ahamiyati. Soliq ishini yuritishda soliq idoralari mansabdor shaxslarning majburiyatlari. Soliq ishini soliq idoralarida bo'limlar va sho'balalar bo'yicha tashkil etilishi. Yuridik shaxslarni soliqqa tortishda ish yuritishni tashkil etish. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortishda ish yuritishni tashkil etish.

Soliq ishini yuritishning o'ziga xosligi, uning tamoyillari

Soliq ishini yuritish ish yuritishning muhim bo'g'ini sifatida. Soliq idoralarida ish hujjatlari bilan ishlashda e'tiborga olinishi lozim bo'lgan jihatlar. Yuridik shaxslarni soliqqa tortishda ish yuritishning o'ziga xosligi. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortishda ish yuritishning o'ziga xosligi. Soliq ishini yuritishning tamoyillari.

Soliq ishini yuritishning manbalari

O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy qonunlari. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va boshqa me'yoriy hujjatlar.

Qonun hujjatlariga asoslangan holda tashkil etilgan yuridik shaxslar va faoliyat ko'rsatayotgan jismoniy shaxslar, ularning soliqqa tortishga doir soliq ob'ektlari, buxgalteriya hisoblari, bank hujjatlari, deklaratsiyalar va soliq to'lovchilar tomonidan soliq idoralariga taqdim etiladigan boshqa hujjatlarni qabul qilish va rasmiylashtirish tartiblari.

Soliq ishini yuritishda informatsion texnologiyalarning ahamiyati

Boshlang'ich va yig'ma hujjatlar bilan ishlashda kompyuter va boshqa texnika vositalarning ahamiyati. Hududiy kompyuter tarmog'i, lokal kompyuter tarmog'i. Turli xil dasturlar, qo'shimcha vositalar. Soliq ishini yuritishga doir hujjatlarni arxivlashtirish, ular ustida ishlashda samaradorlikni ta'minlash. Soliq bo'yicha soliq to'lovchilar, soliq tushumlarini tahlil qilishni tezlashtirishdagi ahamiyati. Yuqori soliq idoralari bilan quyi soliq idoralarining ma'lumot, axborot almashinuvidagi ahamiyati. Soliq idoralarining boshqa davlat idoralari bilan axborot almashinuvining tartib qoidalari.

Soliq ishini yuritishda xorij tajribasidan foydalanish

Soliq ishini yuritishning rivojlangan mamlakatlar soliq amaliyotining umumiy holati. MDH mamlakatlarida soliq ishini yuritishning o'ziga xosligi. Respublikamiz soliq amaliyotida soliq ishini yuritishning xorijiy mamlakatlar soliq ishini yuritish amaliyoti bilan o'xshash va farqli jihatlari. Rivojlangan mamlakatlar soliq ishini yuritish amaliyotidan namunalar olish, rivojlangan mamlakatlar tajribasidan foydalanish.

Soliq ishini yuritishdagi mavjud muammolar

Soliq ishini yuritishda kadrlar bilan bog'liq muammolar. Informatsion texnologiyalardan foydalanish bilan bog'liq muammolar. Soliq to'lovchilar taqdim etgan hujjatlarni qabul qilish va rasmiylashtirish bilan bog'liq muammolar. Soliq tushumlarini

nazorat qilish bilan bog'liq muammolar. Soliq ishini yuritishni samaradorligini ta'minlashdagi muammolar.

Soliq ishini yuritishni takomillashtirish

Soliq ishini yuritish makon va zamon nuqtai nazaridan takomillashtirishni talab etish. Soliq ishini yuritish samaradorligini ta'minlashda mavjud muammolarni aniqlash. Soliq ishini yuritishdagi yangi usullarini amaliyotga qo'llash, samaradorlikni aniqlash. Soliq tushumlarini to'liq va o'z vaqtida tushishini ta'minlashdagi soliq ishini yuritishning mukammal tizimini ishlab chiqish davr talabi ekanligi. Soliq idoralarida mehnat samaradorligini oshirishni ta'minlashning omillari.

3. AMALIY MASHG'ULOTLAR MAVZULARINING MAZMUNI

"Soliq ishini yuritish" fanining predmeti va vazifalari

"Soliq ishini yuritish" fanining predmeti soliq idoralarida hujjatlar bilan ishlashni tashkil etishdagi ahamiyati. Fanning o'rganish uslublari, vazifalari va boshqa fanlar bilan aloqasi.

Soliq ishini yuritishning asoslari, uning tarkibi*

Soliq ishini yuritishni tashkil etish. Soliq ishini yuritishda soliq to'g'risidagi qonun elementlarining huquqiy ahamiyati. Soliq ishini yuritishda soliq idoralari mansabdor shaxslarning majburiyatlari. Soliq ishini soliq idoralarida bo'limlar va sho'balarda bo'yicha tashkil etilishi. Yuridik shaxslarni soliqqa tortishda ish yuritishni tashkil etish. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortishda ish yuritishni tashkil etish.

Soliq ishini yuritishning o'ziga xosligi, uning tamoyillari*

Soliq ishini yuritish ish yuritishning muhim bo'g'ini sifatida. Soliq idoralarida ish hujjatlari bilan ishlashda e'tiborga olinishi lozim bo'lgan jihatlar. Yuridik shaxslarni soliqqa tortishda ish yuritishning o'ziga xosligi. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortishda ish yuritishning o'ziga xosligidir. Soliq ishini yuritishning tamoyillari.

Soliq ishini yuritishning manbalari*

O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy qonunlari. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va boshqa me'yoriy hujjatlar.

Qonun hujjatlariga asoslangan holda tashkil etilgan yuridik shaxslar va faoliyat ko'rsatayotgan jismoniy shaxslar, ularning soliqqa tortishga doir soliq ob'ektlari,

buxgalteriya hisoblari, bank hujjatlari, deklaratsiyalar va soliq to'lovchilar tomonidan soliq idoralariga taqdim etiladigan boshqa hujjatlarni qabul qilish va rasmiylashtirish tartiblari.

Soliq ishini yuritishda informatsion texnologiyalarning ahamiyati*

Boshlang'ich va yig'ma bilan ishlashda kompyuter va texnik vositalarning ahamiyati. Hududiy kompyuter tarmog'i, lokal kompyuter tarmog'i. Turli xil dasturlar, qo'shimcha vositalar. Soliq ishini yuritishga doir hujjatlarni arxivlashtirish, ular ustida ishlashda samaradorlikni ta'minlash. Soliq bo'yicha soliq to'lovchilar, soliq tushumlarini tahlili qilishni tezlashtirishdagi ahamiyati. Yuqori soliq idoralari bilan quyi soliq idoralarining ma'lumot, axborot almashinuvidagi ahamiyati. Soliq idoralarining boshqa davlat idoralari bilan axborot almashinuvining tartib qoidalari.

Soliq ishini yuritishda xorij tajribasidan foydalanish*

Soliq ishini yuritishning rivojlangan mamlakatlar soliq amaliyotining umumiy holati. MDH mamlakatlarida soliq ishini yuritishning o'ziga xosligi. Respublikamiz soliq amaliyotida soliq ishini yuritishning xorijiy mamlakatlar soliq ishini yuritish amaliyoti bilan o'xshash va farqli jihatlari. Rivojlangan mamlakatlar soliq ishini yuritish amaliyotidan namunalar olish, rivojlangan mamlakatlar tajribasidan foydalanish.

Soliq ishini yuritishdagi mavjud muammolar*

Soliq ishini yuritishda kadrlar bilan bog'liq muammolar. Informatsion texnologiyalardan foydalanish bilan bog'liq muammolar. Soliq to'lovchilar taqdim etgan hujjatlarni qabul qilish va rasmiylashtirish bilan bog'liq muammolar. Soliq tushumlarini nazorat qilish bilan bog'liq muammolar. Soliq ishini yuritishni samaradorligini ta'minlashdagi muammolar.

Soliq ishini yuritishni takomillashtirish*

Soliq ishini yuritish makon va zamon nuqtai nazaridan takomillashtirishni talab etish. Soliq ishini yuritish samaradorligini ta'minlashda mavjud muammolarni aniqlash. Soliq ishini yuritishdagi yangi usullarini amaliyotga qo'llash, samaradorlikni aniqlash. Soliq tushumlarini to'liq va o'z vaqtida tushishini ta'minlashdagi soliq ishini yuritishning mukammal tizimini ishlab chiqish davr talabi ekanligi. Soliq idoralarida mehnat samaradorligini oshirishni ta'minlashning omillari.

4. INFORMATSION-TEXNIK VOSITALAR

Bu fanni o'qitish jarayonida quyidagi zamonaviy texnik vositalardan, foydalanish belgilangan.

1. Kompyuter;
 2. Audio va video jihozlar;
 3. Diaproektor;
 4. Kodoskop;
 5. Grafproektor;
 6. Internet saytlari:
- (e-mail: mail@finstat.ru)
(<http://www.finstat.ru/>)
 - (e-mail: valeo@etel.ru)
(<http://www.alpbook.ru/>)
 - (e-mail: alpina@alp.ru)

5. O'ZLASH TIRISH NAZORATI

Fanni talabalar qanday o'zlashtirganligini nazorat qilish ishlari joriy, oraliq, yakuniy nazoratlar, test, yozma ish, talaba mustaqil bajargan ishlar konspekti, kollektivium, sxema, diagramma grafiklarini baholash orqali olib boriladi.

6. ADABIYOTLAR

Asosiy adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -T.: O'zbekiston, 1997.
2. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. -T.: Adolat, 1999.
3. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida, -T.: O'zbekiston, 1995.
4. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T.: O'zbekiston, 1997.
5. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari,- T.: O'zbekiston 1998.
6. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. - T.: O'zbekiston, 2000.
7. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. -T.: O'zbekiston, 1998.
8. Alimboev S. Soliqlar o'quv qo'llanma. -T.: Mehnat, 2000.

9. Beganov V. va boshqalar Moliya siyosati, soliqlar va soliq solish. T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 1998.
10. Yo'ldoshev M., Tursunov Y. Soliq huquqi. -T.: Moliya, 2000.
11. Malikov T. Soliqqa tortishning dolzarb masalalari, -T.: Akademiya 2002.
12. Nalogi i nalogooblajenie v Rossiyskoy Federatsii (uchebnik dlya VUZov). -M.: Knijniy mir, 1999.
13. Nalogi i nalogooblajenie v voprosax i otvetax: chast 1. -T.: GNK, 1998.
14. Nalogi pod.red. D.G Chernika (uchebnoe posobie). -M.: Finansi i statistika, 1998.
15. Finansi pod. red. Drobozinoy L.A. -M.: Yuniti, 2000.
16. Xvan L. Soliq huquqi. -T.: Konsaudit inform, 2001.
17. Xvan L., Kan T. Soliq qonunchiligi asoslari, -T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2001.
18. Yahyoev Q. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti -T.: G'.G'ulom, 2002.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Soliq qonunchiligi bo'yicha me'yoriy hujjatlar to'plami. 1-2 qism. -T.: O'zbekiston buxgalterlar va auditorlar assotsiatsiyasi nashriyot markazi, 1999.
2. Akramov E., Toirov A. Ekonomicheskie reformi Respubliki Uzbekistan -M.: TOO. Lyuks-art. 1998.
3. Mesheryakova O. Nalogovie sistemi razvitix stran mira, - M., 1995.
4. Yahyoev Q. Soliqqa tortish imtiyozlari kerakmi? // Soliq to'lovchilar jurnali 1998.
5. Soliq to'lovchining jurnali. 2002-2003 yy.
6. O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi jurnali. 2002-2003 yy.
7. Soliqlar va bojxona xabarlar gazetasi. 2002-2003 yy.